

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi B.Yangibaevning A.Xudayshukurov xotirasiga bag'ishlanib o'tkazilayotgan ko'rik-festivaldagi nutqi

**Assalomu aleykum,
Hurmatli ko'rik-festival qatnashchilari!
Aziz mehmonlar!**

Eng avvalo, barchangizni ijtimoiy-siyosiy hayotimizning asosini belgilab bergan ulug' bayram - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligi hamda Muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan «Mustahkam oila yili» deb nom berilgan yangi 1012 yil bilan samimiy tabriklashga ruxsat etgaysizlar.

Barcha shahar va tumanlarimizda Konstitutsiya bayrami keng ko'lamda nishonlanayotgan bugungi kunda, buyuk talant egalarini, jamoat arboblari voyaga yetkazgan Al-Beruniy, Ajiniyoz va Bardaq zaminida, iqtisodiyot va ma'naviyat, ma'rifat o'chog'laridan biri bo'lgan qoraqalpog to'prog'ida shunday tadbirlar o'tkazilayotganidan cheksiz hursand ekanligimizni mamnuniyat bilan izhor qilamiz.

Muhtaram Prezidentimiz «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» nomli asarida insonning badiiy didi, musiqiy madaniyati bilan bog'liq «San'atkorlar orasida sog'lom ijodiy muhit tashkil qilish, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy olami va ma'naviy saviyasini yuksaltirish, yoshlarimizning milliy va jahon musiqa madaniyatining mumtoz asarlari bilan birga, ularning kayfiyati va intilishlariga mos keladigan zamonaviy estrada san'ati namunalaridan keng bahramand bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, musiqiy ta'limni yanada rivojlantirish masalalari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi»-degan fikrlari hayotiyiligi bilan juda ahamiyatli hisoblanadi.

Darhaqiqat, nafaqat yoshlar tarbiyasida, balki insonning ma'naviy tafakkurida, jamiyat rivojida muhim o'rin egallaydigan bunday tadbirlar barcha jabhalar qatori xalq ijodiyoti va san'atida ham samarali natijalar bermoqda.

Yurtimizda yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash, ularning intilish va izlanishlariga hayrixoh bo'lish, iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularning o'z oldilariga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishda davlatimiz tomonidan keng qamrovli tadbirlar o'tkazish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Shular qatorida «Nafosat - bo'stonim manim» ko'rik-festivali ham yoshlar o'rtasida milliy mumtoz san'at durdonalarini keng targ'ib etish, millatlararo do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlash, kelajak avlodlarimizni buyuk qadriyatlarimizga, Vatanga sadoqat ruhida, san'atsevar qilib tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Mumtoz musiqalik san'atini keng targ'ib qilish, yoshlarning ma'naviy kamolotini ta'minlash, ularda milliy san'at durdonalariga bo'lgan havasni uyg'otishga xizmat qilayotgan bu ko'rik-festival ko'plab yosh iste'dod egalariga keng imkoniyatlar eshigini oshib bermoqda.

O'zbekiston, Qoraqalpog'iston, Turkmaniston va Tatariston xalq artisti, davlat mukofoti sovrindori Otajon Xudayshukurov xotirasiga bag'ishlanib o'tkazilayotgan ushbu ko'rik-festival yosh xonondalar, an'anaviy, mumtoz akademik va vokal ishtirokchilari hamda estrada xonandalari, baxshilar, xalfalar, hunarmand hamda rassomlar hayoti va ijodida katta o'rin egallamoqda.

Ushbu ko'rik-festivalni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad - xalq ijodiyoti va havaskorlik san'atini rivojlantirish va keng targ'ib etish, yoshlarimizning milliy san'atimizga bo'lgan mehrini yanada oshirish, taniqli xonanda Otajon Xudayshukurov merosini o'rganish hamda yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy san'atimizdan keng foydalanishdan iboratdir.

Shuningdek, Vatanni sharaflyadigan, milliy qadriyatlar, an'analar va urf-odatlarni o'zida ifoda etgan nomoddiy madaniy meros durdonalari, eng sara mumtoz qo'shiqlar, dostonlar, termalar, milliy va jahon opera san'ati, milliy hunarmandchilik hamda rassomlar asarlarini xalqimizning ma'naviy mulkiga aylantirish ko'rik-festivalning asosiy vazifalaridan sanaladi.

Dastlabki yillarda tuman, keyinchalik Qoraqalpog'iston Respublikasi miqyosida o'tkazilgan ushbu tadbir, davlatimizning bevosita qo'llab-quvvatlashi asosida bugungi kunga kelib O'zbekiston Respublikasi miqyosida o'tkazilishi yurtimizda xalq ijodiyoti va havaskorlik san'atiga qaratilgan yuqori e'tibor deb bilamiz.

Otajon Xudayshukurov yosh paytidan tili, dini, urf-odatlari bir bo'lgan o'zbek, qoraqalpog, turkman, qozoq va boshqa da xalqlarining o'zaro do'stligi ulug'lab, milliy totuvlikni yanada mustahkamlash yo'lida samarali mehnat qildi.

Otajon Xudayshukurovning ijodiga mansub musiqa va qo'shiqlar chegara bilmaydi. U «Guro'g'li», «Shohsanam-G'arib», «Sayatxan-Xamra», «Yusup-Axmed», «Davletiyorbek» kabi asarlarni, xalq musiqalarini me'yoriga yetkazib ijro etadigan ovozi va ijro etish mahorati bilan ko'pchilikdan ajralib turadi.

Qadrli do'stlar!

Yurtimizda milliy o'zligimizni tanishga, madaniy me'roslarimizni asrab-avaylashga, xalqimiz farzandlarining hurmatini o'z o'rniga qo'yishga qaratilayotgan alohida e'tibor natijasida bugun qoraqalpog zaminiga barchaning nazari qaratilmoqda.

Betakkor talant egasi, xalqimizning sevimli farzandi Otajon Xudayshukurov xotirasiga bag'ishlab o'tkazilayotgan VII respublika ko'rik-festivaliga yurtimizning barcha viloyatlaridan mehmonlar tashrif buyurgan.

Ko'rik-festivalning saralash bosqichlari 20 oktyabrdan 10 noyabrga qadar Toshkent shahri va viloyatlarning markazlarida tashkil qilinib, ularda ijodkorlarimiz janrlar bo'yicha o'zlarining san'atlarini ko'rsatdi.

Bugungi ko'rik-festivalimizga O'zbekiston Respublikasi hududidan jami 179 nafar ijodkorlarning ishtirok etishi yil sayin yosh xonondalar, an'anaviy, mumtoz akademik va vokal ishtirokchilari hamda estrada xonandalari, baxshilar, xalfalar, hunarmand hamda rassomlar sonining ortib borayotganidan dalolat beradi.

Aziz san'atsevarlar!

Barchangizga ma'lum, O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 20 yillik bayrami munosabati bilan mamlakatimizning har tomonlama rivojlanishi yo'lida samarali mehnat qilayotgan bir guruh mehnat faollari Muhtaram Prezidentimiz farmonlari asosida davlat mukofotlari bilan taqdirlangan edi.

Davlatimiz Konstitutsiyasining 19 yillik bayrami oldidan Oqsaroy qarorgohida ushbu davlat mukofotlarining tantanali topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Unda Muhtaram Prezidentimiz Akademik va xalq san'ati jamiyatlari direktiyasi yakkaxon ijrochisi, bugungi ko'rik-festivalimiz mehmoni Munajat Yo'lchievaga «Buyuk xizmatlari uchun» ordenini topshirar ekan, mumtoz va xalq san'atiga yuqori o'rg'u berib o'tdi.

Shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri opera solisti, qoraqalpoq zamini farzandi Muyassar Razzaqovaga ham «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni tantanali ravishda topshirildi.

Bu davlat mukofotlari nafaqat Munajat Yo'lchieva va Muyassar Razzaqovaning ijodiga, balki ko'p millatli yurtimizning yillar davomida shakllangan boy san'atiga berilgan yuksak baho deb bilamiz.

Shu bilan qator, bugungi ko'rik-festivalimizga O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining Xalq ijodiyoti va havaskorlik san'atini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i Barmat Durdiev, O'zbekiston xalq artistlari, hofizlari, baxshilari va taniqli san'at arboblari ishtirok etmoqda.

«Nafosat - bo'stonim manim» VII respublika ko'rik-festivali ishtirokchilarining san'atlari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining 2011 yil 28 sentyabrdagi maxsus burug'iga asosan tasdiqlanib Hakamlar hay'ati tomonidan baholab boriladi.

Bugungi ko'rik-festival yosh talantlarni kashf etish bilan birga, mustahkam birlik, xalqlar orasida do'stlik aloqalarini yanada kuchaytirishda, taniqli qo'shiqchining sharafli ishini davom ettirishda ahamiyali o'rin egallaydi deb ishonamiz.

Aziz ko'rik-festival qatnashchilari!

Qadrli mehmonlar!

Sizlarni Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 19 yillik bayrami bilan yana bir bor samimiy tabriklab, yurtimiz tinchligi va xalqimiz farovonligi yo'lidagi ezgu ishlaringizda doimo muvaffaqiyatlar, o'zlaringizga mustahkam sihat-salomatlik, oilalaringizga tinchlik-xotirjamlik tilayman hamda yana bir bor «Nafosat - bo'stonim manim» VII ko'rik-festivaliga xo'sh kelibsiz!-deymiz.

Ko'rib chiqildi:

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)